



O'ZBEKISTON SSR HUDUDLARIDA ARTEL VA KOOPERATSIYALARNING TA'MINOTI MASALASI

Qayumova Feruza Inomjonovna

Farg'ona davlat universiteti tarix fakulteti
O'zbekiston tarixi kafedrası o'qituvchisi
fqayumova1983@gmail.com+998904074697

Каюмова Феруза Иномжоновна

Преподаватель кафедры Истории Узбекистана
государственного университета
fqayumova1983@gmail.com+998904074697

Kayumova Feruza Inomzhonovna

Lecturer at the Department of History of Uzbekistan State University
fqayumova1983@gmail.com+998904074697
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10947230>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 02-April 2024 yil
Ma'qullandi: 04-April 2024 yil
Nashr qilindi: 09-April 2024 yil

KEY WORDS

*Ishlab chiqarishda texnika
xavfsizligi kooperativ mulkchilik,
mehnat muhofazasi,
hunarmandchilik kooperatsiyasi,
xususiy mulkchilik, sug'urta.*

ABSTRACT

*Ushbu maqolada 1943-yilda Namangan viloyati
hunarmandchilik sug'urta kassasi tashkil etilganligi va
shu boradagi ishlar yoritiladi.*

*Shuningdek davlat hunarmandchilik kooperatsiyasi
tizimida faoliyat yurituvchi korxonalarda texnika
xavfsizligiga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga
oshirish ijtimoiy ta'minot tizimi hunarmandchilik
kooperativ sug'urta kassalari zimmasiga yuklangaligi
borasida so'z boradi*

Ma'lumki O'zbekiston SSR hududlarida XX asrning 30-yillaridayoq hunarmandchilik kooperatsiyasida kooperativ ijtimoiy ta'minot tizimi shakllangan edi. O'sha vaqtlardan oq kooperatsiya jamiyatdagi ayrim ijtimoiy vazifalarning bir qismi – pensiya bilan ta'minlash, ularning dam olishlari va salomatliklarini tiklash uchun sharoit yaratish, bolalar uchun yozgi oromgohlar hamda maktabgacha ta'lim muassalarini tashkil etish kabi vazifalarni bajarib kelgan edi. Davlat hunarmandchilik kooperatsiyasi tizimida faoliyat yurituvchi korxonalarda texnika xavfsizligiga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirish ijtimoiy ta'minot tizimi uchun xarakterli bo'lmasa-da, hunarmandchilik kooperativ sug'urta kassalari zimmasiga yuklagan edi. Masalan, 1943 yilda Namangan viloyati hunarmandchilik sug'urta kassasi tashkil etilgan bo'lib, 1945 yilga kelganda uning tasarrufida jami 45 ta artel faoliyat yuritgan. Umumiy sug'urta qilinganlar 5707 kishini tashkil etgan[1.369–375].

O'zbekiston hunarmandchilik sug'urta va o'zaro yordam kassasining Ittifoq hunarmandchilik sug'urta kassalarining (1946-yil) yig'ilishidagi hisobotida: "...sug'urta va o'zaro yordam kassalarining asosiy ish faoliyati bu mehnat muhofazasi masalasi ekanligi, ishlab chiqarishdagi ishchi va xizmatchilarni shikast olishdan himoya qiladigan eng yaxshi sharoitni yaratish asosiy vazifa hisoblanishi, buning uchun mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo'yicha maxsus inspeksiya mavjudligiga qaramay, aksariyat hollarda artellarning ishlab chiqarish binolarida tartibsizlik holatlari mavjudligi, korxonalarda mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligining qoniqarsizligi," – qayd etilgan. Shuningdek, mazkur yig'ilishda

“1945-yilning 9 oyi mobaynida tizim tarkibidagi korxonalarda 21 ta o‘lim holati yuz bergan bo‘lsa, 1946-yilning 9 oyi davomida 44 ta shunday holat qayd etilgan. Ayniqsa, o‘smirlar o‘rtasida ham o‘lim holati mavjud bo‘lib, buning sababi esa ularga zarur sharoit yaratilmaganligi, texnik ko‘rsatmalarni tushuntirilmagan texnika bilan ishlashga ruxsat berilganligida” – ekanligi ta’kidlangan edi¹. Haqiqatdan ham keltirilgan ma’lumotlar o‘sha davr uchun ayanchli bo‘lib, garchi bu muammolar turli yig‘ilishlarda muhokama etilgan bo‘lsada, lekin amalda sezilarli o‘zgarishlar qilinmagan edi.

O‘zbekiston sug‘urta va o‘zaro yordam kassa uyushmasining 1947-yil 12-avgustdagi xatida quyidagi ma’lumotlarni ko‘rish mumkin: O‘zbekiston sug‘urta va o‘zaro yordam kassa uyushmasi kooperativ-hunarmandchilik kassasida artellarning umumiy soni 388 tani, ularda ishlovchilarning umumiy soni esa 35016 nafar bo‘lib, erkaklar 20827 kishi, ayollar 14316 nafarni tashkil etgan. Jumladan, Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarida 98 ta artel mavjud bo‘lib, sug‘urta qilinganlar 10510, nafaqaxo‘rlar soni esa 357 nafarni tashkil etgan[2.1.].

1947-yilda artelchilar turmushini yaxshilash va mehnat muhofazasi bo‘yicha 369 ta byuro mavjud bo‘lib, uning ixtiyorida 30 tasi bolalar bog‘chasi, 21 tasi yaslilar, 44 tasi esa tibbiyot punktlaridan iborat bo‘lsa-da, mazkur tashkilot tasarrufida sanatoriy, dam olish uylari va pioner lagerlari bo‘lmagan.

O‘zbekiston uyushmasi Prezidiumining 1948-yil 28-sentabrdagi artel a‘zolarining vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik davri uchun beriladigan nafaqalar miqdorini belgilash to‘g‘risidagi qaroriga asosan (SSSR Ministrlar Sovetining 1948-yil 9-avgustdagi qaroriga asosan) “O‘zbekiston nogironlar sug‘urta kassasi artelning barcha a‘zolariga mehnatga layoqatsizlikning homiladorlik va tug‘ruq nafaqasidan tashqari barcha holatlarda nafaqani to‘lab berish uchun quyidagi miqdor: bitta artelda 8 yildan ortiq ishlasa – 100 foiz, 5–8 yilgacha – 80 foiz, 3–5 yilgacha – 60 foiz, 3 yilgacha – 50 foiz hamda 18 yoshga to‘lmagan o‘smirlar uchun uzluksiz ish stajidan qat’iy nazar – 60 foiz qilib” – belgilab qo‘yildi[3.2.].

1950-yilda Farg‘onadagi “Sotsializm” artelining yillik hisobotida keltirilishicha, yil davomida 29 nafar artel a‘zolariga 6480 so‘mlik moddiy yordam berilgan. Bundan tashqari, pioner lagerlari va dam olish uylariga yuborish uchun artel a‘zolariga qo‘shimcha 1413 so‘m to‘lab berilgan. Eng katta yordam otaliqdagi 1-sonli bolalar uyiga 2800 so‘m ajratilgan, bundan tashqari, yil davomida oziq-ovqat mahsulotlari ham berib borilgan. Artel a‘zolari yashaydigan turar-joylarning ta‘miri uchun 7376 so‘m mablag‘ sarflangan.

Namangan viloyati hunarmandchilik sug‘urta kassasi 1948-yilning birinchi yarim yilligidan 1950-yilning ikkinchi yarim yilligi oralig‘ida amalga oshirilgan ishlar hisobotiga ko‘ra, mehnatni muhofaza qilish va madaniy-maishiy ishlar sohasida qator o‘zgarishlar amalga oshirilgan. Artellarda 241 nafar sug‘urta faollari faoliyat olib borgan bo‘lib, Namangan viloyati hunarmandchilik sug‘urta kassasining yasli va bog‘chalarida 175 nafar artel a‘zolarining bolalari tarbiyalangan. Mehnat sharoitlarini yaxshilash maqsadida artel boshqaruvi bilan 1950-yilda barcha artellar bo‘yicha moliyaviy shartnoma tuzilib, ularda o‘zaro yordam kassalari tashkil etilgan. Ushbu yordam kassalari 150800 so‘m mablag‘ to‘plab, 2500 nafar a‘zoga xizmat qilgan[4.33.].

Artel a‘zolarini yo‘llanmalar bilan ta‘minlashda barcha viloyat hunarmandchilik sug‘urta sovetlarida hunarmandchilik kooperatsiyasidan har mingta ro‘yxatdan o‘tganlar

uchun 20 dona sanatoriya, 64 ta dam olish uylariga, nogironlar kooperatsiyasi bo'yicha esa 44 dona sanatoriya, 91 ta dam olish uylariga berilishi meyor qilib belgilangan edi.

Andijon viloyati hunarmandchilik sovetining 1953-yil 14-oktabrdagi yig'ilishida "Qizil Botir" artelining 1953-yil 10-oktabrdagi umumiy majlisining qarori ko'rib chiqilgan bo'lib, unda artel a'zosi U.Toshmatovning turmush o'rtog'ini vafoti tufayli, to'rt nafar kichik yoshdagi farzandlariga kiyim bosh va poyabzal olish hamda moddiy yordamga muhtojligi ko'rsatilgan.

Kooperativ mulkchilikning asosiy muhim jihatlaridan yana biri bu – yollanma ishchilardan farqli ravishda a'zolarining artel faoliyatida ishtirok etishi, moddiy yordam olishi, uy-joy sharoitlarining yaxshilanganligi va turli qisqartirishlardan himoya qilinganligida edi. Masalaning yana bir muhim jihati artelchilarning nafaqa ta'minoti ham tizimning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan. Nafaqa artel boshqaruvi tomonidan artelning sug'urta badallari hisobidan to'lab berilgan.

Xulosa qilib shuni aytganda, ishlab chiqarish artellari tashkiliy- iqtisodiy tuzilma bo'lishi bilan birga, o'z a'zolarining ijtimoiy muammolarini hal qilishda muhim rol o'ynaydigan tashkilot vazifasini ham bajarib keldi. Ayniqsa urushdan keyingi yillarda son jihatdan ko'pchilikni tashkil etgan nogironlarni ish bilan ta'minlash, ularga tibbiy xizmat ko'rsatish, yangi kasblarga o'qitish, ijtimoiy moslashuv kabi yo'nalishlarda bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Tashkiliy jihatdan kamchilik va nuqsonlardan holi bo'lmagan bir sharoitda nogironlar uchun maxsus artellarning tashkil etilishi, uyda ishlovchilar mehnatidan foydalanishning yo'lga qo'yilishi o'z davri uchun ijtimoiy muammolarning o'ziga xos yechimi sifatida qaraldi. Bu o'rinda artellar o'z mablag'lari hisobidan nogironlar salomatligini tiklash va protez hamda maxsus oyoq kiyimlari olish uchun moddiy yordam berib bordi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Вязова О.Г. Неизвестная страница в истории кооперации советской России: становление кооперативной системы социального обеспечения // Вестник ТГУ., 2009. Выпуск 11.
2. FVDA, 625-fond, 1-ro'yxat, 11-yig'ma jild, 2-varaq.
3. O'zMA, R-2244-fond, 1-ro'yxat, 97-yig'ma jild, 2-varaq.
4. FVDA, 35-fond, 1-ro'yxat, 110-yig'ma jild, 33-varaq.
5. Inomjonovna, Q. F. (2023). Sharq Renessansi Adam Mets Talqinida. Barqarorlik Va Yetakchi Tadqiqotlar Onlayn Ilmiy Jurnali, 3(4), 53-56.
6. Feruzakhon, K. (2022). Formation of Trade Relations in the Fergana Valley (1920-1925). Procedia of Social Sciences and Humanities, 4, 30-32.
7. Қажумова, Ф., & Абдухамидова, Э. (2022). Янги иқтисодий сиёсат ва унинг ўзига хос хусусиятлари. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 49-55
8. Qayumova, F. (2023). FARG'ONA OBLASTINING XX-ASR BOSHLARIDAGI AHVOLI VA YANGI IQTISODIY SIYOSAT OQIBATLARI. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(4), 194-198.
9. Inomjonovna, K. F. (2023). THE STATE OF TRADE AND INDUSTRY OF THE FERGANA VALLEY (1941-1945): Economics science. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(08), 113-117.